

\$LEGAL
SCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

1-JILD | 1-SON

2025

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

1-jild 1-son 2025-yil

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Amirov Zafar Aktamovich - yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY'ATI:

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Umarxonova Dildora Sharipxanovna - yuridik fanlar doktori, professor;

Fazilov Faxod Maratovich - yuridik fanlar doktori, dotsent;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Kenjayev Rustam Xaydarovich - yuridik fanlar nomzodi, professor.

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI
1-jild, 1-son (noyabr, 2025). - 31 bet.

MUNDARIJA

<i>Xudayberdieva Maftuna Zaфар кизи</i> РОЛЬ ПРАВ ДЕТЕЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ: ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	05-16
<i>Eshmurodov Baxrom Ergashevich</i> ADVOKATLAR KASBIY HUQUQIY ONGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17-21
<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KRIMINALISTIKA VA UNING MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI	22-25
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING YANGI BOSQICHI	26-30

Received: 15 November 2025
Accepted: 25 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

A NEW STAGE OF WOMEN'S RIGHTS IN THE PROCESS OF CONSTITUTIONAL REFORMS

Habibullayev Muhammadrajab Obidjonovich

Fergana State University,

E-mail: muhammadrajabh18@gmail.com

Abstract. This article examines the strengthening of women's rights in Uzbekistan during a new stage of constitutional reforms. It analyzes the updated Constitution's provisions aimed at ensuring gender equality, expanding women's political, economic, and social participation, and preventing discrimination. The study highlights state policies, international obligations, support programs, and practical mechanisms that have led to increased female representation in politics, education, and the economy under the framework of building a "New Uzbekistan".

Keywords: gender policy, constitutional reforms, women's protection, social stability, state guarantees, female employment, legal reforms, gender strategy.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING YANGI BOSQICHI

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida xotin-qizlar huquqlarining yangi bosqichda mustahkamlanishi yoritilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada gender tengligini ta'minlash, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini kengaytirish, ularni kamsitishning oldini olishga qaratilgan normalar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati, xalqaro huquqiy majburiyatlar, ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar hamda amaliy mexanizmlar (ayollar ulushining siyosat, ta'lim va iqtisodiyotda ortishi) asosida mamlakatda gender tenglikning real natijalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: gender siyosati, konstitutsiyaviy islohotlar, ayollar himoyasi, ijtimoiy barqarorlik, davlat kafolatlari, ayollar bandligi, huquqiy islohotlar, gender strategiyasi.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida gender tengligi masalasi nafaqat demokratik jamiyat qurishning muhim omili, balki mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash va imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi gender tenglikni qonunchilik darajasida mustahkamlashga, ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratishga yanada keng yo'l ochib berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, xalqaro standartlarga mos ravishda, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning huquqiy bazasini yanada takomillashtirdi. Unda ayollarning siyosiy faolligini oshirish, mehnat va ijtimoiy himoya sohasida ularni qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlik va

kamsitishning oldini olish bo'yicha muhim konstitutsiyaviy normalar belgilandi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy dasturlar tufayli ayollarning iqtisodiyot, ta'lim, siyosat va boshqa sohalardagi ishtiroki sezilarli darajada ortmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga, shuningdek, jamiyatdagi adolat, tenglik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Gender tenglik, ayniqsa ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy tenglik, O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Konstitutsiya gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki u barcha fuqarolarni, jinsidan qat'iy nazar, teng huquqlarga ega deb belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan tamoyillar, ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqlarga ega bo'lishni ta'minlash uchun asosiy huquqiy kafolatlarni taqdim etadi. Ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatlarda teng huquqlarga ega bo'lishi, davlat rivojlanishining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar va siyosatlar, jumladan, ayollarga qarshi zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan normativlar, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan amaliy choralar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bugun jamiyatda ayollarimiz ancha faol, kechagi jur'atsizlik kunlarini asta sekin tark etyapmiz. Bugun O'zbekistonda ayollarga bo'lgan ishonch, hurmat ancha o'zgargan. Masalan, endilikda O'zbekistonda qabul qilinadigan qonun hujjatlari gender ekspertizadan o'tkaziladi. Bu bo'yicha Vazirlar Mahkamasi maxsus nizomni ham tasdiqladi. Umuman gender tenglik masalari bo'yicha bugungi ahvol, ayollarning jamiyatdagi o'rni, faolligi va mavqeyini amalga oshirish bo'yicha masalalar va ularni qiynayotgan muammolar haqida davlatimiz yetarlicha qayg'urmoqda. Oliy Majlis Senati va xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tengligi hamda oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi Konstitutsiyaning ijrosini ta'minlash maqsadida o'zining majlisida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi ijrosini muhokama qilgan.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi mamlakatimiz xotin-qizlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faolligini oshirish va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda hukumatimiz xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilishning qonunchilik va insonparvarlik negizini mustahkamlash yo'lida muhim choralar ko'rmoqda. Ushbu yo'nalishda 200 dan ortiq kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotgani tufayli xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzi sezilarli darajada mustahkamlandi. Jumladan, oliy ta'limning bakalavriat bosqichida xotin-qizlarning ulushi 38 foizdan 53 foizgacha oshdi. Magistratura bosqichida bu ko'rsatkich 34 foizdan 66 foizgacha ko'tarildi. Doktoranturada tahsil olayotgan xotin-qizlar soni esa 576 nafardan 4129 nafarga yetdi. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarida ayollarning faolligi ortib, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar soni 69 ming nafardan 262 ming nafargacha ko'paydi. Siyosiy sohada ayollar ulushi sezilarli darajada oshdi: siyosiy partiyalardagi ulushi 30 foizdan 41 foizga, parlamentdagi ulushi esa 16,4 foizdan 34 foizgacha yetdi. Parlamentlar ittifoqi tomonidan yuritiladigan parlamentdagi ayollar ulushi reytingida O'zbekiston 193 ta mamlakat orasida 130-o'rindan 32-o'ringa ko'tarilib, 92 pog'ona yuqoriladi. Jahon bankining gender tengligi bo'yicha so'nggi hisobotida O'zbekiston dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatoriga kiritildi[2].

Muhokama. Dasturda xotin-qizlarning iqtisodiy erkinligini, bandligini ta'minlash, ularni sifatli va yuqori daromadli kasblarga o'qitish bo'yicha mavjud muammolar ham muhokama qilingan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj — migratsiyadan qaytgan yoki jazoni ijro etish muassasalaridan chiqqan ayollarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning bandligini ta'minlashdagi muammolar alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash bo'yicha mas'ullarga Gender tengligi strategiyasini 2026-yilgacha amalga oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Dasturda davlat fuqarolik xizmatida va milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar ulushini oshirish, ta'lim va axborot texnologiyalari sohasida ularning ishtirokini kengaytirish, raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, oilaviy-maishiy zo'ravonlik va uning oqibatlari, bu boradagi mavjud muammolar muhokamasi ham alohida ko'tarildi. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularning sog'lig'ini tiklash, ruhiy reabilitatsiya jarayonlarini tashkil etish bo'yicha katta ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Siyosiy sohada esa xotin-qizlarning faol ishtirokini kengaytirish uchun muhim chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq, siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko'rsatiladigan nomzodlarning kamida o'ttiz foizi ayollardan iborat bo'lishi shart. Bu norma xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash prinsiplariga to'liq mos keladi hamda ularning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ayollar ham siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkaklar bilan teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Iqtisodiy sohada ham qonun xotin-qizlar va erkaklar uchun teng sharoitlarni ta'minlashni belgilaydi. Davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari jamiyatning iqtisodiy resurslaridan teng foydalanish imkonini yaratishlari shart. Davlat esa o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy yordam va kreditlar ajratishda erkaklar va ayollar o'rtasida teng imkoniyatlarni kafolatlaydi. Bu iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunda ayrim holatlar jinsiy kamsitish sifatida qaralmasligi ham alohida qayd etilgan. Masalan, bola tug'ish, ona suti bilan oziqlantirish, muddatli harbiy xizmatga chaqirish, gender siyosatini amalga oshirishda vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish, xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatlikni saqlash kabi holatlar kamsitish hisoblanmaydi. Chunki bu holatlar biologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan asoslangan farqlardir. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlari milliy qonunchilik tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Xususan, ayollar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash borasidagi xalqaro me'yorlar mamlakatimiz qonunchiligida mustahkam huquqiy asos sifatida o'z ifodasini topgan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun xalqaro huquqning ilg'or tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"[3] degan norma mustahkamlab qo'yilgani ham ushbu sohada davlat siyosatining poydevorini tashkil etadi. Bu qonuniy asoslar mamlakatda gender siyosatini amalga tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, har bir viloyat, tuman va shahar hokimliklarida

xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan. Shuningdek, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi tizimlar orqali ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi mamlakat miqyosida gender tengligini ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Mazkur komissiya davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, ayollarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish, ularning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Komissiya nafaqat siyosiy darajadagi tashabbuslarni ilgari suradi, balki joylardagi xotin-qizlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Hududlarda viloyat, tuman va shahar darajasida xotin-qizlar masalalari bo'yicha kengashlar va ishchi guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ular Respublika komissiyasi bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi. Bundan tashqari, gender tengligi sohasidagi davlat boshqaruvining yana bir muhim bo'g'ini — davlat organlarining o'z vakolatlari doirasidagi faoliyatidir. Har bir vazirlik, idora yoki muassasa o'z sohasida ayollar va erkaklar uchun teng sharoit yaratish, kamsitish holatlarining oldini olish, ish joylarida teng imkoniyatlar tizimini joriy etish bo'yicha ichki siyosat yuritadi. Masalan, Ta'lim, Bandlik, Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar, Adliya vazirliklari o'z yo'nalishlari bo'yicha gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu tarzda, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda davlat siyosati markazdan joylarga qadar izchil tizim asosida tashkil etilgan. Har bir bo'g'inning maqsadi — erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni amalda ta'minlash, jamiyatda adolat, hurmat va o'zaro ishonch muhitini yaratishdir.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasining Oila va Mehnat kodekslarida ham ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ifodalovchi qator qoidalarni ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu qonunda ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'ligini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko'rish, mehnatni onalik bilan bog'lab qo'shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi, deb ko'rsatilgan (Oila kodeksi 4-modda)[4-123-bet].

Mamlakatimizda xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ularni har taraflama qo'llab-quvvatlash hamda intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlarga qaramasdan, homilador va 3 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarning mehnat huquqlari buzilishi va ular o'zlariga berilgan imtiyozlardan to'liq foydalana olmayotganligi holatlari hali ham uchrab turibdi. Shunday holatlarni bartaraf etish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida: "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi"[3], deb belgilandi. Ushbu masalaga davlatimiz rahbari e'tibor qaratarkan, yangi avlodni dunyoga keltirayotgan, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ayollarga azal-azaldan xalqimiz alohida g'amxo'rlik ko'rsatib kelganini ta'kidlagani bejiz emas.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 85-maqsadi doirasida ham ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari belgilangan. Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi doirasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash masalasi qo'yilgan[5].

Xulosa. Ayollarning siyosiy va iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquqlarini himoya qilish va mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish zarur. Shuningdek, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, ayollarga nisbatan barcha shakllardagi diskriminatsiyaning oldini olish uchun huquqiy va ijtimoiy chora-tadbirlar yanada kuchaytirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining gender tenglikni ta'minlashdagi roli, nafaqat huquqiy asos, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunlar va siyosatlarning amaliyoti, o'z navbatida, gender tenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning gender tenglikka doir tamoyillarini kuchaytirish va amaliyotda to'liq amalga oshirish orqali, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo'yicha samarali natijalarga erishish mumkin. Bu nafaqat ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirishga, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va demokratiyaning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender>
2. Kun.uz ma'lumotnomasi <https://kun.uz/48548464#>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
4. Inson huquqlari, Darslik. Toshkent-2021
5. Kamila Olimova, Yangi Konstitutsiyada xotin-qizlarning huquqlari kafolatlangan.
6. Oila kodeksi
7. Mehnat kodeksi
8. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

1-jild 1-son 2025-yil

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).